

OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINI YO'LGA QO'YISHDA TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGINING O'RNI VA AHAMIYATI

Mamasaidova O'g'ilshod Davron qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Email:mamasaidovaogilshod@gmail.com. Tel:+99894 911 58 08

To'xtasheva Rayhona Allamurat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Email:raykhontukhtasheva00@gmail.com. Tel: +99894 954 14 77

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila va maktab hamkorligini yo'lga qo'yishda maktab psixologining faoliyati, pedagoglar jamoasi bilan olib boriladigan ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: rasmiy, norasmiy, tarbiyachi, ijtimoiy soha, ta'lif to'g'risidagi qonun, oilaviy ta'lif, bilim.

O'sib kelayotgan avlodning jamiyat normalarini to'la qonli qabul qilishi, o'z davrining yaxshi va kerakli kishisi bo'lib yetishishi oilaning boshqa rasmiy tarbiya maskanlari bilan o'rnatadigan to'g'ri munosabatlari bevosita bog'liq.

Ta'lif muassasasi psixologi amaliy maslahat berish ishlarini ota-onalar, o'quvchilar va pedagoglar jamoasida tashkil etadi. Maslahat berish ishlari individual va guruhiy bo'lishi mumkin. Ota-onalar jamoasi bilan ishlar olib borilganda maktab faoliyati haqida tushunchalar beriladi. Farzandlarining bilim olishlari uchun ota-onalardan ham jonbozlik ko'rsatishlari talab qilinadi.

Oxirgi yillarda oilaviy ta'lifning ahamiyati ortib bormoqda. Ko'plab mamlakatlarda qator qonun hujjatlari va normativ aktlar qabul qilinganki, ularga ko'ra, ota-onaning xohishiga ko'ra oila muhitida, xonadonda bolaning ta'lif va tarbiyasini tashkil etish mumkin. Bunday tarbiyachilarning qonuniy xaq-huquqlari qonun bilan kafolatlangan. Masalan, "Rossiya Fedaratxiyasiда oilaviy (uy sharoitidagi) ta'lif to'g'risidagi Nizom", "Uyda ta'lif olishning namunaviy Nizomi" kabi hujjatlar mamlakatning "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni bilan kafolatlangan bo'lib, unga ko'ra agar ota-ona xohlasa, xonodon pedagogi uyg'a kelib bola (lar)ga ta'lif beradi. Bu kabi guvernatkalar xizmatidan foydalanish, uy enagalarini yollash kabi tajriba ko'plab rivojlangan mamlakatlarda keng quloch yoygan. Yurtimiz O'zbekistonda ham ushbu harakatning dastlabki ayrim ko'rinishlari paydo bo'lgan. Lekin bizda oilaviy ta'lif alohida ko'makka muhtoj, yetim, nogiron bolalr uchun tashkil etilgan. Chunki o'zbekistonlik bolalar avvalo qonunan berilgan imkoniyatlar bois 2-3 yilgacha bevosita onaning ardog'ida bo'lishi mumkin, bu davrda ikki yoshgacha farzandi bo'lgan onaga

davlat tomonidan nafaqa ham tayinlanadi. Agar oilada imkoniyat bo'lsa, keyingi davrlarda bola yana onasi yoki buvilari yordamida katta bo'ladi, mакtabgacha ta'lim muaasasalariga jalb etiladi. Tug'ilishdan nogironli bo'lgan, maktabga borish o'qish imkoniyati cheklangan bolalarga esa "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, uy sharoitida o'qitish tashkil etilgan. Bunday pedagoglarga qo'shimcha imtiyozlar ham beriladi, ular 6 soatlik dastur asosida nogiron bolaga eng zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni uyda beradilar. Bu ham O'zbekistonning ijtimoiy sohani isloh qilish borasida siyosati bo'lib, yurtimizda birorta bola maktab yoshida ta'limdan chetda qolmaydi. Normal taraqqiyotli bolalar maktabgacha ta'lim muaasasalaridan so'ng maktabga jalb etiladilarki, bu yerda ham ta'limning hamda tarbiyaning samaradorligi oila bilan hamkorlkka tayanishi barchaga ma'lum. SHuning uchun ham har bir o'rta maktabda "Ota-onalar Kengashlari" tashkil etilgan, ularga kattagina huquq va vakolatlar berilganki, bu "Maktab – oila – mahalla" kontseptsiyasining amalda ishlashining isbotidir. Lekin bu borada muammrlar yo'q emas, chunki maktab ma'muriyati, pelagoglar har doim ham barcha o'quvchilarning oilasi, undagi sharoitlar, ota-onaning bola o'qishiga qanchalik qiziqishi va manfaatdorligini yaxshi bilmaydi, natijada ba'zan aynan maktab yillarida bola psixologiyasi keskin o'zgarib, u deviant xulqlilar toifasiga ham tushib qolishi mumkin.

Zero, bola tarbiyasi va to'g'ri ta'limi bo'yicha aniq va asosli bilimlar sohibi bo'lmish ta'lim muassasasi psixologining oila bilan aloqasi qanchalik yaxshi va maqsadli bo'lsa, bola tarbiyasi ko'ngildagidek bo'ladi, bu borada aniq tasavyurga ega bo'ligan ayrim ota-onalar uchun hayot maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O'quv qo'llanma. – T.: 2006
2. Karimova.V. Oila psixologiyasi. Toshkent -2007.
3. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi –T. "Sharq", 2013. – 35-36 betlar.